



KIMYO SANOATIDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALARNI JADALLASHTIRIB, NATIJADORLIKNI OSHIRISH MUMKIN

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-fevral kuni kimyo sanoatida 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

So‘nggi yillarda bu tarmoqda sezilarli o‘zgarish bo‘lgani, yangi texnologik zanjirlarni yaratish uchun investitsiyalarga keng yo‘l ochilgani bilan, yirik kimyo zavodlari faoliyati hali zamon talablari darajasida emasligi qayd etildi.

Shu bois, tanqidiy ruhdagi o‘tgan yig‘ilishda sohadagi dolzarb masalalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari mutasaddilarga hali ishlatilmagan

imkoniyatlarni, hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni aniq ko‘rsatib o‘tdi.

Masalan, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirib, kimyo korxonalarida qo‘shilgan qiymatni hozirgidan bir necha barobar oshirish mumkin.

Prezidentimiz bu boradagi kamchiliklarni qayd etib, yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarini karrasiga ko‘paytirish vazifasini qo‘ydi.

Hukumatga tarmoqdagi muammolarni tezkor hal etish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish va loyihalarni jadallashtirish bo‘yicha qat‘iy topshiriqlar berildi.

Tarmoqdagi har bir korxonani raqamlashtirish, quvvatlardan oqilona foydalanish, energiya samaradorlikni oshirish va tannarxni kamaytirish bo‘yicha mutasaddilarga aniq vazifalar belgilandi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON – MALAYZIYA: STRATEGIK SHERIKLIK YO‘LIDA TARIXIY QADAM



Janubi-Sharqiy Osiyoning iqtisodiy markazlaridan biri — Malayziya bilan O‘zbekiston munosabatlari yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Keyingi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik ko‘p qirrali tus olib, strategik ahamiyat kasb etmoqda.



Davomi 2-beta

DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI

Bu jarayonda faqat uyg‘oq jamiyatlar g‘olib

Yaqinda 10 yildan ko‘proq muddat Janubiy Koreyada shartnoma asosida ishlashga ketgan kursdoshim yurtimizga qaytib keldi, Toshkentda, Buxoroda suhbatdosh bo‘ldi, shaharlarni aylandik. Shunda do‘stim o‘z yurtidan ancha muddat uzoqda bo‘lgani uchunmi, Toshkent va Buxorodagi o‘zgarishlar, osmono‘par binola-ru, odamlarning o‘z hayotidan mamnunligi, zamonaviy mashinalarda yurishi, yoshlar uchun gavjum hududlar ko‘payib, ularning bilim olishga, kasb egallashga ishtiyoqini kuzatib, hayratini yashira olmadi.



Yana bir manzardan zavqlanganini e‘tirof etdi: qahvaxonalarda xalqimiz oilasi, yaqinlari, do‘stlari bilan shod-xurram ovqatlanmoqda, hordiq chiqarmoqda.

Ha, albatta, so‘nggi sakkiz yilda O‘zbekiston tarixchiligida yangi sahifalar ochildi. Viloyatlardagi shahar, tumanlar qiyofasi butkul o‘zgardi. Bunga sabab oqilona siyosat tufayli, avvalo, boshqaruvdagi har bir rahbarning

tafakkuriga “Islohotlar islohot uchun emas, avvalo, inson uchun” bosh g‘oyasi singdirilishi bo‘ldi. Xalqimiz tafakkurida ham yaxshi kunlarga ishonch, umid kurtak ochdi. Yaxshi, qulay ish o‘rinlari yaratildi, “Bizga shu ham bo‘laveradi” deb eski emas, ko‘rkam, zamonaviy binolarda yashash imkoni berildi. Bugun sanog‘i ancha salmoqli katta zavod, fabrikalar, ishlab chiqarish korxonalari, savdo va

tijorat, umuman, xonadonlardagi kichik bandlikdan tortib, eng yirik zavodlarga ishga tushirildi.

Bir fuqaro — O‘zbekistonning bir vakili, bugun biz 37,5 milliarddan oshdik. Barchamiz birlashsak, barqaror rivojlanish sari odimlaymiz. Shunga yarasha ulkan maqsadlar sari boryapmiz.

Davomi 3-beta

YANGI G‘O‘L ISHLASH VA FIDOYILIK

So‘nggi yillarda dunyoda kechayotgan shiddatli o‘zgarishlar mamlakat va korxonalar oldiga kutilmagan vazifa hamda muammolarni qo‘ymoqda. Jahon iqtisodiyotining tarkibi o‘zgarib, tarmoqlarga raqamlashtirish va sun‘iy intellekt kabi yuqori texnologiyalar jadal kirib kelmog‘da. Elektronika, mashinasozlik sohalari hamda mahsulot ishlab chiqarishda “yashil” iqtisodiyot tez sur‘atda rivojlanayotgani kon-metallurgiya korxonalarini mahsulotlariga talabni ham oshiryapti.

Soha ekspertlarining ma‘lumotiga ko‘ra, 2030-yilga borib, dunyoda mis, litiy, kobalt kabi metallarga talab 1,5 barobardan 7 barobargacha oshishi kutilmoqda. Bu esa mazkur qazilma boyliklarini qayta ishlovchi yirik kompaniyalardan barcha jarayonni modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt, innovatsion hamda “yashil” texnologiyalarni keng qo‘llashni talab etadi. Dunyoda kon-metallurgiya sohasida yetakchi o‘rinlarda turgan O‘zbekiston oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ymoqda.

Davomi 4-beta

OLDIMIZGA QO‘YILGAN VAZIFALARNI BAJARISHDA MUHIM OMIL BO‘LMOQDA

Taraqqiyot odimlari



9-fevral — Alisher Navoiy tavallud topgan kun

HAZRAT NAZARI TUSHGAN shoivalar

Davlatimiz rahbari 2024-yilning 31-oktabr – 1-noyabr kunlari Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida 2025-yilni viloyatda “Alisher Navoiy yili” deb e‘lon qildi va Navoiy shahrida xalqaro miqyosda “Navoiyxonlik kechasi”ni o‘tkazishni taklif etdi. Bu taklifni o‘qir ekanman, menda Hazrat Navoiy haqida biz, ziyolilar nimalar bilamiz va uni xalqqa yetkazish yo‘lida nechog‘liq kamarbasta bo‘lib turibmiz degan savol paydo bo‘ldi. Navoiyni qancha o‘rgansak, shuncha oz. Chunki u bilimlar ummoni, fikrlar chaqmog‘i, nafasat chamanidir.

Bir ijodkor sifatida Hazratning nazariga tushgan ayollar haqida o‘ylay boshladim. Uning asarlari ichra ayollar nomini izladim. Topdim, quvondim, faxr etdim va sizga ham ilindim. Yana bir og‘riqli fikr so‘roqlarim osmonida chaqmoqday chaqdi. Agar biz, safdosh shoivalar Navoiy davrida yashaganimizda ul zotning nazariga musharraf bo‘larmidik? Ulug‘ shoir e‘tiboriga loyiq qalam tebrata olyapmizmi?

Shoir asarlarida jami tilga olgan 30 dan ortiq ayolning yarmidan ko‘pi badiiy to‘qima obraz bo‘lsa, qolganlari tarixiy shaxslar. Bu ayollar Navoiydan avval o‘tgan va zamondosh bo‘lgan shoiralardir va Hazratning nazari bejiz ularga tushmagan.

Turkiy tildagi ilk tazkira bo‘lmish “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”)da 459 ta zamondosh shoir haqida so‘z ketgan. Ular orasida ayollarning nomi ham bor. Bu shoiralarning ismi Navoiy tufayli tarixga muhurlandi.

Davomi 6-beta

Tabiatni asrash – insonni asrash



YILINGIZ YASHIL BO‘LSIN!

EZGU NIYAT ORTIDAGI CHAQIRIQ

Yangi yil bayramida bir qarindoshimizning xonadonida mehmon bo‘ldik. Xonadon sahibi uzoq yillar turli lavozimlarda ishlagan, ma‘rifatli inson. Shunga yarasha suhbatidan ko‘ngil yorishadi. Dasturxonaga tortilgan taomlarni yeb bo‘lgach, uy egasidan duo so‘radik. U duo orasida “Yilingiz yashil bo‘lsin!” dedi. Negadir bu niyat xotiramga muhurlanib qoldi.

Bugunga kelib, “yashil” hayot tushunchasi doimiy ehtiyojga aylanib qolgan. Sababi borgan sari “yashil” energetikadan boshqa quvvat manbalarining hajmini hisob-kitob qilish osonlashib boryapti. Shu tufayli juda ko‘p “qora oltin”ga boy mamlakatlar daromadining bir qismini qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratishga sarflayotir. Albatta, bu yo‘ldagi har bir xatti-harakat katta ahamiyat kasb etadi. Sababi “yashil” energetikaning afzalliklari juda ko‘p. Ulardan biri — ekologiyaning musaffoligiga hissa qo‘shish. Tabiatni muvozanatda saqlashning qoidasi nihoyatda sodda — havoga ko‘tarilayotgan zararli gaz oqimini qisqartirib, kislorod manbalarini ko‘paytirish.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bitta daraxt bir yilda o‘rtacha 120 kilo kislorod ishlab chiqaradi. Shuningdek, umri davomida salkam 1 tonna karbonat angidrid gazini yutadi. Bir odam esa yiliga havoga o‘rtacha yarim tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqaradi. O‘rtacha yoshni 70 yosh deb olsak, bir kishi havoga chiqaradigan zararli gazni yutish uchun 35 tup daraxt kerak bo‘larkan. Bu — o‘simliklarning zararni qoplashdagi xizmati. Ularning odamzodni toza havo bilan ta‘minlash vazifasi ham bor.

Har birimizga nafas olish uchun bir yilda 600 kilo atrofida kislorod zarur. Demak, bir kishini kislorod bilan ta‘minlash uchun kamida 5-6 tup daraxt kerak bo‘ladi. Kamida! Sababi daraxtlarning ham kislorod ishlab chiqarish foizi turlicha bo‘lishi mumkin.

Tabiat muvozanati buzilmasligi uchun har bir jon boshiga yiliga o‘rtacha 20 tup daraxtning xizmati dardkor. Bitta o‘zbek oilasida o‘rtacha 5 kishi yashaydi, desak, bu bitta oila uchun kamida 100 tup daraxt zarur degani. Bitta mahalla yoki qishloqda o‘rtacha 100 ta oila yashaydi deb olsak, 10 ming tup daraxt bo‘lishi lozim. Bu o‘rtacha 100 ta oila yashaydigan hududda daraxtlar uchun umumiy 7 gektar maydon ajratilishi zarurligini anglatadi.

Mamlakatimizda tomoqrali xonadonlarning umumiy maydoni o‘rtacha 6 sotix atrofida. Bu hovlining ko‘pi bilan 2-3 sotixni daraxt va o‘simliklar ekishga ajratish mumkin, degani. Maksimal hisoblaganda 100 ta oila yashaydigan hududda yashil maydon barpo etish uchun 3 gektar yer ajratilishi mumkin. Bu daraxtlarga ehtiyojning yarmini ham qoplamaydi. Nima qilish kerak? Bunga insoniyat allaqachon yechim topgan — bog‘lar, o‘rmonlar, yashil hududlar barpo etish lozim.

Davomi 5-beta



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O'ZBEKISTON — MALAYZIYA:

STRATEGIK SHERIKLIK YO'LIDA TARIXIY QADAM



Nodir JUMAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Malayziyaning geografik joylashuvi O'zbekiston uchun muhim afzalliklar yaratadi. Malay yarim orolida joylashgan bu davlat orqali mamlakatimiz Osiyo-Tinch okeani mintaqasining ulkan bozorlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Malakka koridori dunyoning eng gavjum hududlaridan biri. U Hindiston, Xitoy va ASEAN davlatlari kabi aholisi zich joylashgan mintaqalarni bir-biriga bog'laydi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Malayziyadan asosan, yog'-moy mahsulotlari, mashina va transport ehtiyot qismlari, oziq-ovqat va kimyoviy mahsulotlar import qilinadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Malayziyaga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda yangi sahifa ochdi. Bu tashrif nafaqat diplomatik aloqalarni mustahkamlash, balki mavjud yuqori salohiyatdan samarali foydalanish orqali hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

2017-2024-yillar davomida Malayziyadan jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy

yangi bosqichga olib chiqish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash va strategik sheriklikni kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o'rnatilgan, bugungi kunga qadar ikki davlat hamkorligi izchil rivojlanib kelmog'da.

Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, iqtisodiy sohada jadal sur'atlarda o'smog'da. Buni ikki tomonlama savdo aylanmasining yuksalishi va turli tarmoqlardagi faol hamkorlik misolida ko'rish mumkin.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2017-2024-yillar oralig'ida ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 65,5 million dollardan 102,4 million dollargacha ko'tarilib, 1,6 barobar o'sish qayd etildi.

Keyingi sakkiz yilda O'zbekiston asosan, kimyoviy o'g'itlar, xizmatlarni eksport qilgan bo'lsa, Malayziyadan palma yog'i, hayvonot va o'simlik moylari, kimyoviy va yuvish vositalari, oziq-ovqat, tayyor mahsulotlar hamda xizmatlar import qilinadi.

2024-yilgi eksport 6 million dollarni tashkil etib, uning 41 foizi oziq-ovqat mahsulotlari (sabzavot, dukkakli o'simliklar va mevalar), 55 foizi kimyoviy moddalar, xususan, o'g'itlarga to'g'ri keldi.

2017-2024-yillar davomida Malayziyadan jalb etilgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy

investitsiyalar va kreditlar hajmi 12,9 million dollarga yetdi.

Kelirilgan raqamlar va yo'nalishlar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy-savdo aloqalarni yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

2025-2026-yillar O'zbekiston — Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri deb e'lon qilinishi alohida e'tiborga molik.



zamonaviy kasb-hunarlarini egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent viloyatida Malayziya kompaniyasi boshqaruvida maxsus iqtisodiy zona tashkil etilishi rejalashtirilganini ham qayd etib o'tish joiz.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish maqsadida imtiyozli savdo to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish, o'zaro sanoat ko'rgazmalarini

o'tkazish, sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Ilm-fan sohasidagi kelishuvlar ham alohida e'tiborga molik. Malayziyaning ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish masalasi doimiy e'tiborda bo'ladi.

Tashrif natijalari bo'yicha qabul qilingan hujjatlarining samarali ijrosini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tashrif davomida investitsiyaviy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha qator kelishuvlar imzolandi.



Uchrashuvda O'zbekiston va Malayziya ishbirolarining doiralarida o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun iqtisodiy komissiyani shakllantirish masalasi ham muhokama qilingani iqtisodiy munosabatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Islom hamkorlik tashkiloti va Osiyo taraqqiyot banki doirasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirishga oid kelishuvlarga erishildi.

Ta'lim sohasidagi masalalarga to'xtaladigan bo'lsak, imzolangan bitimlar doirasida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida professor-

o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Ayniqsa, "Visiting Professor" dasturi orqali malakali pedagoglarimizning Malayziya universitetlarida faoliyat yuritishi istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Mamlakatimiz o'rtasida madaniy tadbirlar va festivallar tashkil etish, muzeylar va madaniy muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha ham muhim kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, Malayziya tajribasini o'rgangan holda, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha kelishuvga erishilgan katta samara berishi shubhasiz.

Natijada ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zaro aloqalar jadal rivojlanib, Texnik hamkorlik dasturi doirasida mamlakatimiz vazirligi va idoralari mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida 850 dan ortiq mutaxassis Malayziyada kasbiy tajriba ortirdi.

Bu esa iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Erishilgan kelishuvlarga ko'ra, yurtimiz talabarlari uchun Malayziya oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish uchun grantlar va imtiyozli dasturlar soni oshirilib, ilmiy tadqiqot va akademik almashinuv dasturlari kengaytirildi.

Istiqboldagi rejalarga e'tibor qaratsak, ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirali hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyat mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Alohida ta'kidlash joizki, muzey fondida saqlanayotgan 200 dan ortiq noyob eksponatlar O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid, ularni o'rganish va tadqiq etish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Xalosa o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari barqaror rivojlanish yo'lida, davlatimiz rahbarining Malayziyaga rasmiy tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqich boshlanishini belgilab berdi.

davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida akademik hamkorlik kelishuvlari imzolangan edi. O'tgan davr mobaynida ushbu kelishuvlar ijrosini ta'minlash maqsadida ilmiy-texnikaviy sohada ikki davlat olimlari o'rtasida tajriba almashinuvi yo'lga qo'yildi.

Natijada ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zaro aloqalar jadal rivojlanib, Texnik hamkorlik dasturi doirasida mamlakatimiz vazirligi va idoralari mutaxassislarining malakasini oshirish maqsadida 850 dan ortiq mutaxassis Malayziyada kasbiy tajriba ortirdi.

Innovatsion texnologiyalar, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar va boshqa zamonaviy yo'nalishlarda qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

"Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta'lim sohasidagi imkoniyatlar va tashabbuslar" mavzusida bo'lib o'tgan birinchi O'zbekiston — Malayziya ta'lim forumining tashkil etilishi, uning doirasida 50 dan ortiq shartnomalar imzolangan ta'lim va ilmiy almashinuvlarga yangi ruh bahsh etadi.

Erishilgan kelishuvlarga ko'ra, yurtimiz talabarlari uchun Malayziya oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyat mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Alohida ta'kidlash joizki, muzey fondida saqlanayotgan 200 dan ortiq noyob eksponatlar O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid, ularni o'rganish va tadqiq etish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Xalosa o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari barqaror rivojlanish yo'lida, davlatimiz rahbarining Malayziyaga rasmiy tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqich boshlanishini belgilab berdi.

Imzolangan kelishuvlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarini, balki ta'lim va madaniy sohalarini ham qamrab oladi.

Imzolangan kelishuvlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarini, balki ta'lim va madaniy sohalarini ham qamrab oladi. Bu esa O'zbekiston va Malayziya munosabatlari yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston — 2030

"O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash" yo'nalishida yurtimizning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimi salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Ayni maqsadda mamlakatimizda transport-logistika tizimini jadal rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilashga investitsiyalarni jalb qilish, yuk tashishlar bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish borasida qator izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Transport sohasidagi yirik infratuzilma loyihalari mamlakat hududlarining o'zaro bog'langanligini ta'minlash va transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish vazifalarini hal etish imkonini berdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 27-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham strategiyada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, tizimni 2030-yilgacha rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qator vazifalar belgilangan.

Yurtimiz tarixan Buyuk ipak yo'lida joylashgan va savdo-sotiq, ilm-fan va madaniy rivojlangan hudud sifatida mintaq va jahon tamaddunida muhim o'rin tutgan.

Mamlakatimizdagi keng ko'lami ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida O'zbekistonning Sharq va G'arbi bog'lovchi muhim ko'priq sifatidagi o'rini mustahkamlash, transport-logistika yo'laklari imkoniyatini yanada oshirish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda.



yetkazib berish muddatlarini qisqartirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Qaror bilan mamlakatimiz transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

Mazkur qaror transport-logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish, istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda tashqi bozorlarga yuklarni

xizmatlari hajmini esa 3 milliard dollarga yetkazish masalalari to'g'ri.

Markaz zimmasiga xalqaro transport yo'laklarida yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularning yechimlari, istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlarining transport-logistika xizmatlaridan foydalanishdagi sarf-xarajalarini kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, transport-logistika va transport-eksportkorlik xizmatlari bozori rivojlantirish kabi qator vazifalar yuklatildi.

Hujjatda xalqaro tashuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlari yaqinida elektron navbat tizimi va kutish zonalarini tashkil etiladi.

Bu esa, o'z navbatida, davlat chegaralarida transport vositalari to'planib qolishining oldini olish bilan birga, tashuvchilarga qo'shimcha ma'lumotlar ham beradi.

yurtimiz orqali tashiladigan yuk hajmini oshirish hamda milliy transport-eksportkorlik, logistik korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish kabi chora-tadbirlar kuchaytirildi.

Transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida birinchi yo'nalish sifatida xalqaro transport koridorlarini diversifikatsiya qilish masalasi qo'yilgan.

Ikkinchi yo'nalish — mamlakat tranzit salohiyatini to'laqlik bilan rivojlantirish bo'yicha qo'yilgan.

Uchinchi yo'nalishda transport infratuzilmasini kompleks va ildam rivojlantirish, logistika markazlarining keng tarmoqli shakllantirish vazifalari tilga olinadi.

Bu yo'nalishda xalqaro standartlarga muvofiq xalqaro va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari yoqasida 400 ga yaqin zamonaviy yo'l bo'yi servis obyektlari xususiy sektorni jalb qilgan holda tashkil etish maqsad qilingan.

Ahamiyatli, ayni maqsadda xalqaro va davlat ahamiyatidagi 2183 kilometr avtomobil yo'li qurilib, rekonstruksiya qilinadi.

O'tgan yilda respublikamiz davlat chegarasi orqali 3,3 million avtotransport vositasi harakatlangan.

Hujjatda chegara o'tkazish punktlari o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida ularni modernizatsiya qilish va kengaytirish choralarini ko'rish hamda barcha tashuvchilar tomonidan xalqaro yuk tashish shartlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini so'zsiz ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Shuningdek, davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarida avtotransport vositalarining elektron navbat tizimi joriy etilishi belgilangan.

Dastlab bu tizim respublikamizdan chiqib ketayotgan transport vositalari uchun qo'llaniladi.

Keyinchalik qo'shni mamlakatlar bilan mazkur tizimni integratsiya qilish va ma'lumot almashish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, mazkur axborot tizimi Transport vazirligining tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadi.

Elektron navbat tizimi juda katta qulaylik yaratadi.

Birinchi navbatda, tirbandlikning oldini oladi, qolaversa, haydovchiga belgilangan navbat kelguniga qadar maxsus ajratilgan dam olish hududlarida vaqtini o'tkazishga imkon beradi.

Eng asosiysi, eksport mahsulotlari sifatini yuksaltirish, o'z vaqtida xorijiy hamkorlarga yetkazilishini kafolatlaydi.

Yana bir muhim jihati. Sohada raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, logistika kadrlari tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Konsepsiyada bu borada ham qator vazifalar belgilangan.

Kelgusida kadrlar tayyorlashda xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yiladi.

Xususan, Xalqaro avtomobil transporti itifoqi bilan hamkorlikda kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha mintaqaviy o'quv markazi tashkil etiladi.

Mazkur qaror amalga tatbiq etilishi natijasida Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida O'zbekistonning o'rini 55-pog'onadan past bo'lmagan darajagacha ko'tarish ko'zda tutilgan.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Mulohaza

DUNYONING MAFKURAVIY
MANZARASIBu jarayonda faqat
uyg'ooq jamiyatlar g'olibAzizbek OMONOV,
sotsiologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

Boshlanishi 1-betda

Bunday ezuq maqsadlar dastlab BMTning Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasida, keyinchalik "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi" deb nomlangan salmoqli hujjatda belgilab qo'yildi. Xususan, global ahamiyatga ega bo'lgan "Kun tartibi — 2030"ning qisqa va o'rta muddatlarga mo'ljallangan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadi dunyoning 193 mamlakati qatorida O'zbekiston tomonidan ham qabul qilindi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir inson qadri va uning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik va rivojlanish huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq zamonaviy qarashlarini o'zida jamlagan bilan ham ahamiyatlidir. Bugun hech bir fuqaro o'z muammosi bilan o'zi qoldirilgan. O'ziga fuqaro, tadbirkor, yoshlar, ayollar, yoshi ulug' yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bo'lsin, barchasining harakati, muammosi, tashvishini eshituvchi mas'ul rahbarlar hamda nazoratga oluvchi shaxslar bor. Hatto avvallari minglab mavjud bo'lgan, shunchaki tilda bo'lgan "kambag'allik" so'zi kuchli iroda bilan ochiqchasiga aytilib, bu toifadagi fuqarolarimizni yuksaltirish uchun mas'ul vazirlik tashkil etildi. Bugun ushbu vazirlik mutasaddilar va jamoatchilik harakati bilan minglab aholimizning kambag'allikdan chiqib, ishbilarmon, o'ziga to'q oila bo'lib yashashi uchun harakat qilmoqda.

G'urur bilan aytishimiz kerakki, O'zbekiston 2023-yili BRM indeksida (SDG index) 71,1 ball bilan 166 ta mamlakat orasida 69-o'rinni egallab, 2022-yildagidan 8 pog'ona yuqorilashga erishdi. Bunda yurtimizda barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadi — kambag'allikni qisqartirish, gender tenglik, toza suv va sanitariya, barqaror shaharlar va aholi punktlari, tinchlik, adolatli, samarali institutlar hamda barqaror taraqqiyot yo'lida ijoiy o'sishga erishildi.

Aholimizning 50 foizini tashkil etadigan ayollarning barqaror rivojlanishdagi hisssasi ham sezilarli darajada. So'nggi yetti yilda O'zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi ko'paydi. Ishbilarmon xotin-qizlar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan ayollar soni 205 mingdan oshdi. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitildi. Salkam yarim million opa-singlimiz ish bilan ta'minlandi. Hozirgi kunda oliygohlarda ta'lim olayotgan talabalarimiz yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Xotin-qizlarni ziyoli qilish borasidagi davlatimiz siyosati samarasini bera boshladi. Quvonarli, magistraturani davom ettirayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt summalarini davlat tomonidan qoplab berilmoqda.

Albatta, yurtimizda erishilayotgan yutuqlar, natijalar mislsiz darajada ekanini bugun nafaqat o'zimizda, qo'shni davlatlarda, balki jahonning eng yirik mamlakatlarida ham e'tirof etilmoqda.

Dunyoning turli mintaqasida kechayotgan mafkuraviy, siyosiy va harbiy mojarolar natijasida eng yirik kompaniyalar va ishbilarmon

doira vakillari tinchligi kafolatlangan yurtini, hududini, kelajagi uchun aniq barqaror jadal rivojlanayotgan mamlakatni o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yish maqsadida tanlaydi. Ayni damda bunday xalqaro tadbirkorlik makoni yangi O'zbekistondir.

Bu yuksak marralar, natijalar qachon shiddat bilan davom ettiriladi? Qachonki tinchlik bo'lsa! Shu o'rinda bugun dunyoda yuzaga kelayotgan yangi xavf-xatarlar bunday ezuq maqsadlarga erishish yo'lida jiddiy to'siq bo'layotganini alohida qayd etib o'tish kerak.

Xatarlarni nimalarda
ko'ramiz?

Dunyoda geosiyosiy va geoiqtisodiy qarama-qarshiliklar tobora keskinlashmoqda, xalqaro munosabatlar tizimida yuzaga kelayotgan mojarolar va ziddiyatlar kuch ishlatish orqali hal etishga intilishlar kuchaymoqda.

Bugun jahonda xalqaro huquqning umumiy tirof etilgan prinsiplaridan chekinish, xavf-xatar va tahdidlar yechimiga biryozlama qarash holatini kuzatilmog'ida. Ayniqsa, har bir xalqning haq-huquqlarini hurmat qilish, suveren mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, hududiy yaxlitligi va mustaqilligiga qarshi tahdid yoki kuch ishlatishdan tiyilish, yuzaga kelgan har qanday nizoni muzokaralar yo'li bilan hal etish borasida qator savollar to'planib qolgan.

Shuningdek, aksariyat hollarda adolat, o'zaro hurmat, tenglik, hamkorlik va hamjihatlik tamoyillariga panja orasidan qarash holatini hamda o'zaro ishonch, bir-birini tushunish, ochiq va konstruktiv muloqot bobida inqiroz kuzatilmog'ida. Ilgari maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat yo'li bilan himoya qilib kelgan qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'lga o'tganiga, keskinlik va mojarolar tobora kuchayib borayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz.

Afsuski, xalqaro hamjamiyat tomonidan oliy qadriyat sifatida tan olingan inson, uning hayoti, erkinlik va huquqlarini poy-mol etish ko'pgina mamlakatlarda oddiy holga aylangan. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyoda qurolli to'qnashuvlar yuz berayotgan hududlar soni 55 taga yetgan, so'z ravonliklari soni esa 28 foiz ko'paygan.

Bunga Ukraina, Falastin, Suriya va boshqa geosiyosiy, qurolli ziddiyatlar kechayotgan hududlar keltirib o'tish o'rini. Achinarlisi shundaki, minglab ayollar, yosh bolalar, umuman, oddiy tinch aholi mana shunday dahshatli fojialar qurboniga aylangan. Bugun dunyo bo'ylab kechayotgan qurolli mojarolar oqibatida halok bo'lganlar soni 14 foiz ko'paygan. Bunday taloto'plar oqibatida dunyo aholisining 2,3 foizi o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan.

milliard odam esa toza ichimlik suvdan bahramand bo'la olmayapti. Buning ustiga har yili 600 million kishi sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari orqali yuqadigan xavfli kasalliklardan jabr ko'rmoqda. Havoning haddan tashqari isib ketishi bilan bog'liq o'lim darajasi tobora ko'payib bormoqda.

Bu odamzodning ona tabiat bilan muloqoti va unga bo'lgan mehriining keskin kamayganidan dalolat beradi. Shuning uchun yurtimizda so'nggi yetti yilda ekologik barqarorlikni ta'minlash, atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyotning jadal hayotimizga kirishi, rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratilmog'ida. Joriy 2025-yilga Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb nom berilishida ham keng ma'no, ustuvor maqsad-vazifalar bor.

Achinarli xotira. Yaqin-yaqingacha biz ona tabiatni asrash kerakligi haqidagi shiorlar bilan cheklandik, xolos. Keyingi yillarda bu boradagi jadal qadamlar "Yashil makon" umummilliy harakati yuzaga kelishi va uning doirasida yurtimizda millionlab ko'chat ekilishi, qurilayotgan binolar atrofida yoki bo'sh turgan keng maydonlarda daraxtzorlar tashkil qilinishi bilan yangi bosqichga chiqdi.

O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo dunyo bo'yicha iqlim o'zgarishidan eng ko'p zarar ko'rayotgan mintaqalardan biridir. Ko'p yillik meteorologik kuzatishlar so'nggi 30 yilda mintaqamizda favqulodda jazirama



Bu Ikkinchi jahon urushidan beri eng yuqori ko'rsatkichdir. Xullas, vaziyat kun sayin izdan chiqib, chigallashib bormoqda.

Navbatdagi tahdid sayyoramizda iqlim o'zgarishi va ekologik vaziyat keskinlashuvi, bioxilma-xillik qisqarishi, atrof-muhit ifloslanishi va tabiiy resurslar kamayishi bilan bog'liq.

To'g'risi, bugun ekologik xatarlar kun sayin "halokatli nuqta"ga yaqinlashmoqda. Barqaror rivojlanish yo'lida eng asosiy tahdidlardan biriga aylangan ushbu masala ayni paytda hatto dunyodagi geosiyosiy vaziyatga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozir dunyoda 3,6 milliard kishi iqlim o'zgarishidan sezilarli darajada aziyat chekayotgan hududlarda yashamoqda, 2

kunlar soni 2 karra ko'paygani, o'rta-havo harorati oshib borishi ham dunyodagi umumiy ko'rsatkichlardan 2 barobar yuqori ekanini hamda tog'lardagi muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib bitganini ko'rsatmoqda.

Tahlillarga ko'ra, suv taqchilligi tufayli mintaqamiz davlatlari hozirgi o'zida har yili qariyb 2 milliard dollar miqdorida zarar ko'rmoqda. Yillar o'tib ushbu iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. Ya'ni suv taqchilligi muammosi allaqachon muqarrar tus olgani va bundan buyon tobora chuqurlashib borishi achchiq haqiqatdir.

Turli tabiiy ofatlar, shiddatli demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnogen omillar ham suv ta'minoti va ekologiya bilan bog'liq vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu muammolarni hal qilish masalasi O'zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. Negaki mamlakatimiz dunyodagi eng katta ekologik ofatlardan biri — Orol fojiasini bevosita o'z boshidan o'tkazmoqda.

Prezidentimiz doimiy ravishda mamlakatlarining birinchi rahbarlari, mas'ul vakillari ishtirokida o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar, sammitlar, kengaytirilgan va kichik muloqotlarda ekologik vaziyatni yaxshilash, suv tanqisligi va tabiiy ofatlardan saqlanish hamda Orol muammosini hamjihatlikda, birlashib hal etish tashabbusi, g'oyalarni ilgari surib kelayotir.

Chunki bugun xalqimiz global isish, ekologik muvozanat buzilishi bilan bog'liq anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg'oqchilik va chang bo'ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho'lanishi, bioxilma-xillik tobora qisqarib borishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi, ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi kabi jiddiy tahdidlar bilan yuzma-yuz yashamoqda. Ushbu global muammo yangi O'zbekistonning 2030-yilga qadar shiddat bilan barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ham to'siqlik qilayotir.

Biz, albatta, xalqimiz bir tanu bir jon bo'lib, jonajon ona zaminimiz atrof-muhitni asrash va ekologik toza, barqaror "yashil" iqtisodiyot sari intilmog'imiz kerak.

Global iqtisodiyotda tizimli uzilishlar vujudga kelishi, savdo, investitsiya va innovatsiya sohaslarida erkin almashish yo'lida yangi to'siqlar paydo bo'lishi, tovarlar va xizmatlar aylanishining izdan chiqishi, energetik xavfsizlikka tahdidlar oshishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlar halokatli tus olishi oqibatida ko'plab mintaqalarda ijtimoiy beqarorlik sodir bo'lmoqda.

Yoshlar asosiy drayverga
aylanmoqda

Bugun barcha sohalar singari ta'limga e'tibor yuksaldi. Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limining yillar davomida yechimini kutayotgan masalalar hal etilmog'ida. Bu

sohaga xususiy bog'cha va maktablarning kirib kelishi davlat va nodavlat sektor o'rtasidagi yaxshi ma'nodagi raqobat muhitini yaratdi. Samarasi shuki, bugun yosh avlod zamonaviy ta'lim-tarbiya olmoqda. Ota-onalar farzandini raqobatda yetakchi bo'lgan zamonaviy bog'cha va maktabga adolatli, raqamlashtirilgan tizimlar orqali joylashtirish imkoniga ega bo'ldi. Toshkent shahri va viloyatlarda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar ochilishi yangi avlod jadalari, yangi O'zbekistonda barpo etadigan yoshlar tarbiyalanishiga katta maydon bo'lyapti.

Joriy yilning yanvar oyida "Abu-Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" doirasida yurtimiz ta'lim tizimi yutuqlari xalqaro maydonda yana bir bor e'tirof etilishi

xabarlar chiqayotir. Bunga o'rganib ham qoldik. Bugungi davr yoshlari o'qishini, kasb-hunar egallashini, asosiy, kelajakda kim bo'lishini faqatgina ota-ona emas, balki iqtidori, qiziqishidan kelib chiqqan holda o'zlarini o'zlariga bamaslahat qaror chiqaradigan bo'ldi.

Yangi O'zbekiston yoshlarining ertangi kunga ishonchi baland. Yurt koriga yarash, unga munosib farzand, yetuk kadr bo'lish, o'zi yashab turgan jamiyatni barqaror rivojlanadigan, farovon hayot kafolatlangan davlatga aylantirish uchun o'zini safarbar etish ishtiyoqi baland.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat oliygohlar yoshlari jamiyatimizning turli bo'g'inlarida yetakchi



USHBU MAQLARNI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



barchamizga quvonch bag'ishladi. Toshkent shahridagi Prezident maktabi Shayx Zoid nomidagi nufuzli mukofotning "Global o'rta maktablar" nominatsiyasida g'olib topildi. Maktab o'quvchilari Pahlavon G'ulomov va Asilbek Ashrapov hamda ularning ustози Sohixbon Azizovning yomg'ir suvini ichishiga yaroqli darajagacha qayta ishlash loyihasi g'alabani qo'lga kiritdi. Tanlovga 156 ta davlatdan jami 5980 ta ariza kelib tushgan aytiladi. Abu-Dabida mukofotni o'quvchilarga Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon shaxsan topshirdi.

Ta'limga berilayotgan e'tibor samarasi har jabhada, jumladan, BAA sammitida ham namoyon bo'ldi. Yoshlarimizning bu ajoyib muvaffaqiyati barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi, shuningdek, biz tanlagan barqaror va "yashil" rivojlanish yo'li naqadar to'g'ri ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yurtimizda oliy ta'lim ham yangi davrga yuz tutdi. Bugun yoshlar talabalikka qabul qilinishidan tortib, oliygohni bitirib, ishga joylashish, kasb-hunar egallashiga qadar ijtimoiy nazoratga olindi. Ya'ni til, kasb-hunar bilishni qo'llash va moliyaviy ko'mak tizimi yaratildi. Bu yoshlarga oid davlat siyosatining muhim jihati aylandi. Natijada maktablarni bitirgan o'quvchilar bir vaqtning o'zida dunyoning eng nufuzli 10, 15, 20 tagacha oliygohiga qabul qilingani haqida

kadr yoki rahbar lavozimlariga kirib kelmoqda. Bir so'z bilan aytganda, "Mana, men yangi O'zbekiston bunyodkori bo'laman!" degan minglab yoshlar jamiyatimizning asosiy drayveriga aylanib bormoqda.

O'zbekiston oliy ta'limining barcha yo'nalishlari qatorida birgina sog'liqni saqlash sohasida ta'lim berayotgan oliygohlarda nafaqat o'zbek yoshlari, balki xorijiy mamlakatlardan kelib tahsil olayotgan minglab talabalar, ilmiy izlanuvchi, tadqiqotchilar bor. Bu esa tarixiy an'ananing takrorlanishi, ya'ni buyuk siymolarimiz merosini o'qitish, o'rganish yana o'zimizga qaytganini anglatadi. Bu yutuqlarning barchasi mamlakatimizdagi uzoqni ko'zlab yuritilayotgan islohotlar natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi dunyoning globallashuv, axborot va mafkuraviy xurujlar avj olgan bir davrida O'zbekiston taraqqiyot yo'lida yuksak marralar sari odimlab bormoqda. Bu borada maqsad va vazifalar aniq. Har bir vatandoshimiz, ayniqsa, aholimizning 60 foizdan ortig'ini tashkil qiladigan yoshlarimiz yangi O'zbekistonda barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini qurish kabi ulug'vor maqsadlarni ro'yobga chiqarishga shaylanmog'i dardor. Ayniqsa, "O'zbekiston menga nima qildi?", deb emas, balki "Men yurtim uchun nima qildim?" kabi g'oyalarni hayotimizning shioriga aylantirishimiz kerak.



YANGI GICHA ISHLASH VA FIDOYILIK

Boshlanishi 1-betda

Xalqparvar siyosat — rivojlanish va farovonlik asosi



Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon metallurgiya kombinati” AJ boshqaruvi rasi — bosh direktori

Mehnatkash va fidoyi xalqimiz ulkan marralarni zabt etish yo'lidagi bunyodkorlik salohiyatini namoyon qilmoqda. Yurtimizdagi tinchlik-totuvlik, ahillik, davlatimizning xalqparvar siyosati rivojlanishga va xalqimizning farovonligiga asos bo'lmoqda. Prezidentimiz 2024-yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida ta'kidlaganidek, iqtisodiyotimiz ikki karra o'sib, 100 milliard dollarlik tarixiy marradan oshdi. Aholi jon boshiga daromad 2018-yildagi 1600 dollardan 3000 dollarga yetishi kutilmoqda. Jahon banki 2024-yilda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan 3 davlat qatoridan joy olganini e'tirof etdi.

Bu raqamlar O'zbekiston o'z rivojlanishining yangi va yuksak davriga qadam qo'yayotganining amaliy isboti bo'lish bilan birga yurtimizdagi xalqparvar siyosatning yorqin ifodasi, yaratilayotgan shart-sharoitlar odamlarni rozi qilish, tinch va farovon turmushga xizmat qilayotganining yaqqol dalili hamdir.

2024-yil yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun o'ziga xos yil bo'ldi. Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida ro'y bergan yangilanish va o'zgarishlar xalqimiz hayotida katta iz qoldirdi. Navoiy kon metallurgiya kombinati jamoasi ham o'tgan yilda barcha jahd bilan muvaffaqiyatga erishdi. Kombinat kon boshqarmalari, zavod va konlari jamoasi fidoyilik va vatanparvarlik namunasini ko'rsatib, matonati mehnat qildi hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini ortig'i bilan bajardi. Natijada 93,3 trillon so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'sish sur'ati 2023-yilgiga nisbatan 105,3 foizni tashkil qildi. Oltin ishlab chiqarish rejasini 105,2 foiz, kumush ishlab chiqarish esa 113,4 foiz bajarildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati bugun geologiya, konchilik, metallurgiya, energetika, mahalliyashtirish, transport, qurilish kabi yirik sohalarini mujassam etgan ko'p tarmoqli strategik ishlab chiqarish klasteri. Mazkur tarmoqlarning har biri bo'yicha keng qamrovli ishlar, loyihalar, dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa kombinatni rivojlantirish, kelgusi istiqbolini belgilashda alohida ahamiyatga ega.

Har qanday korxonani rivojlantirishda investitsiya dasturi juda muhim. Keyingi sakkiz yil bunday loyihalarni amalga oshirishda bizga katta tajriba-sinov maktabi bo'ldi. Shu davrda o'z kuchimiz, bilim va salohiyatimiz bilan yirik hajmdagi ishlarni muvaffaqiyatli bajarib, bildirilgan yuksak ishonchni oqlab kelyapmiz. 2024-yilda Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasi qiymati 402,2 million AQSH dollari bo'lgan ikkita yirik loyihani — Pistali konida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlab majmuasining infratuzilma obyektlarini qurish va “Amudaryo — Zarafshon” suv quvurining uchinchi liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish loyihalarini ishga tushirdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 914,5 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu borada o'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 145,3 foizni tashkil etdi.

O'tgan yilda korxonamiz xalqaro miqyosda muhim e'tiroflarga munosib ko'rildi. Kombinat “S&P Global Ratings” va “Fitch Ratings” reyting agentliklari tomonidan birinchi xalqaro kredit reytingini oldi. Bu O'zbekiston



kompaniyalariga berilgan eng yuqori reyting ko'rsatkichi. Buning uzviy davomi sifatida ilk bor 1 milliard AQSH dollari miqdoridagi xalqaro korporativ obligatsiyalarni chiqarish va London fond birjasida joylashtirish bo'yicha qilingan ishlar kon-metallurgiya sanoati solnomasidan tarixiy voqea sifatida joy oldi. Shuningdek, kombinat gender tenglikni qo'llab-quvvatlash doirasida “International Women in Mining” xalqaro uyushmasi a'zozligiga

muammoga aylanib borayotir. Shu ma'noda, olimlar bu muammolarni hal etish uchun “yashil” iqtisodiyotni keng joriy etish taklifini bildirmoqda. “Yashil” iqtisodiyot energiya va resursni tejash, atmosferaga uglerod kabi zararli moddalar chiqarishni kamaytirish, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyaning muqobil manbalariga, organik qishloq xo'jaligiga, pirovardida tabiatga ziyon yetkazmay iqtisodiyotni rivojlantirishga imkon

beradi. Tabiiy resurslarni asrash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, atmosferaga zaharli moddalar chiqarilishini kamaytiradi.

Ekspertlar har bir korxonaga uchun “yashil” iqtisodiyotning muhim komponenti sifatida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega bo'lishini aytmoqda. Bu juda to'g'ri taklif. Ayni paytda jahonning nufuzli va yirik kompaniyalari qaysi sohada faoliyat yuritmasin, mahsulotini ishlab chiqarishda “yashil” energetikadan foydalanishga katta e'tibor qaratmoqda va mablag' ajratmoqda. Ularning mahsulotidagi yorliqlarda “yashil” energetikadan foydalanib ishlab chiqarilgan to'g'risidagi yozuv mavjudligi mahsulotning xaridorligini ta'minlamoqda. Bu borada O'zbekistonning ham salohiyati yuqori. Soha ekspertlarining hisob-kitobiga ko'ra, mamlakatimizda muqobil energetika, ayniqsa, quyosh energiyasining yillik zaxirasi 270 million tonna shartli yoqilg'i ekvivalentiga teng.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya to'lovchi texnologiyalarini joriy etishni jadallatirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosi yuzasidan kombinat ishlab chiqarish obyektlarida 2024-yilga qadar ishga tushirilgan quyosh fotoelektr stansiyalarining umumiy quvvati 1450 kilovattni tashkil etgan edi. O'tgan yil oxiriga kelib, qo'shimcha 5800 kilovattli quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirildi va ularning quvvati 5 barobar oshdi. Bugun kombinatning barcha ma'muriy binosi fotoelektr stansiyalaridan olinadigan elektr



energiyasi iste'molining 21 foizini tashkil qiladi.

Kombinat obyektlarida 4993 ta quyosh suv istitish qurilmasi o'rnatilgan. Ular yordamida bir kunda 723 ming 985 litr hajmda issiq suv ishlab chiqarilmoqda. Mavsum (aprel-oktabr oylari) da kombinatning barcha obyektlarida issiq suvga ehtiyojni 100 foiz quyosh suv istitish qurilmalari hisobidan qoplashga erishildi. Natijada quyosh suv istitish qurilmalaridan foydalanish evaziga yiliga 1,7 million kub metr tabiiy gaz yoki elektr energiyasi ekvivalentida 12 million 360 ming kilovatt-soat elektr energiyasi tejab qolindi.

Prezidentimiz tomonidan 2025-yilning Atrof-muhitini asrash va “yashil” iqtisodiyot

yili, deb e'lon qilinishi bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishiga ishonchimiz komil.

Suvni tejash — ustuvor vazifa

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholisi eng ko'p, suv resurslari esa eng kam mamlakat. Suv manbalarining 18 foizigina yurtimiz hududida shakllanadi. Qolgan 82 foizga yaqin suv qo'shni davlatlardan Amudaryo va Sirdaryo orqali yurtimizga kirib keladi. Suv masalasi asosan Qizilqum sahrosida faoliyat yuritayotgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun ham katta muammo. Chunki korxonaga ishlab chiqarish obyektlarida ma'danni qazib olish, ayniqsa, uni qayta ishlab jarayoni bevosita suv yordamida amalga oshiriladi.

Kombinatning suvga yillik ehtiyoji 130 million kub metrni tashkil etadi. Uning asosiy qismi, ya'ni 81 foizi — 105 million kub metri Amudaryodan olinadi. Daryodan olib olinadigan “Amudaryo — Zarafshon” suv inshootining 9 ta nasos stansiyasi orqali ishlab chiqarish obyektlari va aholi yashash punktlari bo'lgan Uchquduq va Zarafshon shaharlariga yetkazib beriladi. Mazkur yirik strategik korxonaning 1000 ga yaqin ishchi-xodimi sahradan o'tgan 1000 kilometr dan ortiq suv tarmog'i, 100 dan ziyod katta quvvatli nasos agregati, 57 kilometr ga yaqin yuqori kuchlanishli havo elektr tarmoqlarining kunu tun ishlashi uchun xizmat qiladi.

Asosiy suv ta'minoti manbasi Amudaryo bo'lgan kombinatda so'nggi yillarda yer osti va yer usti manbalaridan olinadigan chuchuk suvni tejash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha muayyan loyihalar, ilmiy ishlanmalar va qator chora-tadbirlar rejasini amalga oshirib kelinmoqda. Kombinatda suvni tejash bo'yicha qilingan ishlar natijasida gidrometallurgiya

zavodlarida bir tonna ma'danni qayta ishlab uchun sarflanadigan toza suv sarfi 2020-yilda 1,05 kub metrni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkichni 0,92 kub metrgacha kamaytirishga erishildi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga binoan “Amudaryo — Zarafshon” suv inshootida “2018-2024-yillarda Amudaryo — Zarafshon suv inshootining uchinchi suv tarmog'ini tortish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish” investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Shuningdek, gidrometallurgiya zavodlari ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan ikkilamchi (texnologik chiqindixonasi suvi, karyer va shaxta sizot suvi) suvdan foydalanilish ulushi 2020-yilda 16 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 25 foizga yetdi. Bunda gidrometallurgiya zavodlarining chiqindi omboridan qaytariladigan suv hajmi qariyb ikki barobar, shaxta suvi va minerallashuvi yuqori bo'lgan yer osti suvini tozalagan holda ishlab chiqarishga yo'naltirish hajmi 1,5 barobar ortdi. Shuningdek, Zarafshon va Uchquduq oqova suvini tozalash inshootlaridan ishlab chiqarishga qaytarilgan texnik suvning yillik hajmi qariyb 5,5 million kub metrga yetkazildi.

Suvni tejash va suvdan samarali foydalanish bilan bog'liq islohotlarni yanada takomillatirish maqsadida 2024-yil 9-iyulda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida suv resurslarini tejash va suvdan oqilona foydalanish bo'yicha 2024-2030-yillarga mo'ljallangan dastur tasdiqlandi. Dasturga muvofiq, 2024-2030-yillarda qiymati 176 milliard so'mlik jami 36 million kub metr toza suvni tejash rejalashtirilgan. Bu Zarafshon va Uchquduq shaharlarini aholisini qariyb uch yil uzluksiz suv bilan ta'minlash imkonini beradi.

Dasturi amalga oshirishdan asosiy maqsad 2030-yilga borib, gidrometallurgiya zavodlarida bir tonna ma'danni qayta ishlab uchun sarflanadigan toza suv sarfini 0,8 kub metrgacha tushirish hamda ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan aylanma, tozalangan va shaxta ushbu ulushini 35-40 foizga yetkazish va bu orqali Amudaryodan olinadigan suvni shunga mos tarzda tejashdir.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi amalda

Texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, yangi zavod va fabrikalar qurilishi ijobiy jihatlar bilan birga tabiat sofligini saqlashdek dolzarb muammoni ham keltirib chiqarmoqda. Havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, global isish tabiiy muvozanatga va odamlar sog'lig'iga zarar yetkazmoqda. Mamlakatimizda ham atrof-muhitni asrash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilmog'ida. Ayniqsa, yashil olamni saqlash va ko'paytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mamlakatimizda yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chati ekish, shahar va tumanlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga yetkazish reja qilindi.

Kombinat jamoasi birinчилardan bo'lib, loyiha doirasida tizimli ishlarni bajarmoqda. Jamoamiz o'tgan yili bahor va kuzda 460,3 ming tup manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatini ekdi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yirik sanoat korxonalarini va chiqindi

poligonlari atrofiga ko'chatlar ekilib, “yashil belbog”lar tashkil qilinishi belgilangan. Keyingi yillarda Tomdi tumanidagi Turbay koni hududida cho'l iqlimiga mos 30 ming tupdan ortiq saksovul ko'chati o'tqazilib, 2,5 gektar maydonda “yashil belbog” barpo etildi. Nurota tumanidagi “Pistali” koni va 6-gidrometallurgiya zavodi atrofidagi 155,2 gektar yerda qariyb 230 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chati ekildi. Nihollar ekilgan maydonning 135,9 gektarida tomchilab sug'orish tizimi o'rnatildi. Shu ko'chatlar ekilgan maydon orolig'ida hudud va iqlimga mos poliz ekinlari — tarvuz, oshqovoq, qovun, bodring ekilib, tomchilab sug'orish hisobiga mo'ljalangan hududda ishchi-xodimlarga yetkazib berildi.

Mamlakatimizda Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, aholining turmush darajasini yaxshilash borasida ko'plab ishlar bajarilmoqda. Kombinat yoshlari tashabbusi bilan 2024-yilda Mo'ynoq tumanida Orolbo'yi va Orol dengizining qurigan tubiga “Orol taqdiri — kelajak avlod taqdiri” shiori ostida 100 ming tup saksovul ko'chati ekilib, “yashil belbog” tadbiri amalga oshirildi. Joriy yilda 460 ming tupdan ortiq manzarali, mevali daraxt ko'chati va butalar ekishni rejalashtirganimiz.

Yutuqlar salmoqli, rejalar yuksak

Dunyoda kechayotgan globalashuv jarayonida, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, barchamiz doim izlanish va itilishda



bo'lishimiz kerak. Kombinatimizda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish maqsadida “Boston Consulting Group” kompaniyasi bilan hamkorlikda NKMK AJning 2030-yilgacha raqamli transformatsiya strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada korxonani yuksalishining asosiy yo'nalishlari etib geologiya-qidiruv ishlarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, jarayonlarni sun'iy intellekt asosida boshqarish tizimlarini yo'lga qo'yish, kombinatni 2030-yilgacha rivojlantirishning takomillashgan investitsiya dasturini ishlab chiqish belgilandi.

2025-yilda Muruntov konini o'zlash-tirishning keyingi bosqichi, shuningdek, Dovgiztov va Kokpatas konlaridan oltin ma'danlarni qazib olishning uchinchi bosqichi boshlanadi. 7-gidrometallurgiya zavodining texnologik ma'danlarni qayta ishlab yillik quvvati 25 million tonnaga, 3-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlab yillik quvvati 10 million tonnaga yetkazildi. Zarmitan konida muhandislik jihatdan noyob bo'lgan “Skipli” shaxta stvoli ishga tushirildi. Uning chuqurligi 1000 metr bo'lib, shaxtaning kelgusida yillik oltin tarkibli ma'danlarni qazib chiqarish quvvati 1,4 million tonnani tashkil etadi.

Zimmamizda kombinatni 2030-yilgacha barqaror rivojlantirish dasturi doirasida yana ko'plab boshqa muhim va ulug'vor vazifalar turibdi. Korxonamizning bu vazifalar ko'lamini va mas'uliyatini chuqur anglagan fidoyi va tajribali mutaxassislari, barcha ishchi-xodimi yangi O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, jahon bozoriga raqobatbardosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo'lidagi fidokorona mehnat qiladi hamda yuksak marralarga erishadi.

MUQOBIL ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISH – BIRDAN-BIR TO'G'RI YECHIM

Abdushukur HAMZAYEV,
O'zbekiston Ekologik partiyasi raisi

Dunyoda tugamaydigan resurs yo'q. Shu bois, bugungi kunda yer osti tabiiy boyliklari, jumladan, tabiiy gazdan oqilona va samarali foydalanish, energiya tejamlorligi va "yashil" energetikani izchil rivojlantirish davr talabiga aylandi.



iste'molchi bir oyda 114 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlatgan bo'lsa, oxirgi yillarga kelib 200 kilovatt-soatga yetdi. Bugungi kunda elektr energiyasidan foydalanishda aholi ulushi 26,5 foizdir. Vaholanki, 1990-yilda ushbu ko'rsatkich 13,9 foiz edi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarning asosiy qismini tabiiy gaz, mazut, ko'mir



tashkil etmoqda. Mazkur ko'rsatkich hozir 43 foizga teng va ularning narxi dunyo bozorida qimmatlashib borayotgani inobatga olinasa, uning ahamiyati yanada oshadi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning 86 foizi issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to'g'ri keladi.

IESlarda yiliga 17 milliard kub metr tabiiy gaz sarflanmoqda, vaholanki, shuncha gazni qo'shimcha qiymat yaratish jarayonlariga yo'naltirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, yangi ish o'rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish va eksport hajmi oshishi hisobiga aholi bandligini, iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash kabi muhim masalalarni ijobiy hal etish imkoniyatini yaratadi.

Har qanday biznes uchun barqaror va uzluksiz energiya resurslari ta'minoti juda zarur. Elektr energiyasi ta'minoti mukammal holatga keltirilmas ekan, O'zbekistonning olis hududlari investorlar nazaridan chetda qolaveradi.

Iqlimning dunyo miqyosida global isib ketishi yoqilg'ining organik turlaridan foydalanadigan issiqlik elektr stansiyalari ishlatish natijasida yuzaga keladigan, shuningdek, tobora ko'payib borayotgan ichki yonish dvigatellarining atmosferaga chiqarayotgan gazlar bilan bevosita bog'liq. Keyingi 40 yilda butun insoniyat tarixidagidan ko'ra ko'proq organik yoqilg'i qazib olindi. Joriy yuz yillik ham bundan mustasno emas.

Bugungi kunda dunyoda yoqilg'idan foydalanish miqdori yiliga 12 milliard tonna neft ekvivalentini tashkil etadi (taxminan bir kishiga 2 tonna). Organik yoqilg'iga talab esa jadal sur'atlarda ortib boraveradi. Neft, tabiiy gaz, ko'mir va uran kabi qazib olinadigan yoqilg'i turlari ayni paytda jahon energetika balansini negizini tashkil etadi va yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qoladi. Ammo ushbu yoqilg'ilar resurslari ularga ishlov berish hamda foydalanilishi sababli tobora kamayib bormoqda.

Energiya resurslaridan hozirgi foydalanish miqdori darajasida jahonda neft zaxirasi 45-50, tabiiy gaz 70-75, toshko'mir 165-170, qo'ng'ir ko'mir 450-500 yilga va yadro yoqilg'isi esa nisbatan ko'proq yillarga yetadi. Qazilma yoqilg'i turlarining geologik zaxiralari turli geografik hududlarda teng taqsimlanmagan va ularni qazib olish xarajatlari ham farq qiladi. Har xil yoqilg'i va energiya turlari kam sonli mamlakatlar hududlarida to'planib qolganki, ushbu mamlakatlarda energiya iste'mol qilish miqdori ba'zi ulardagi organik yoqilg'i zaxiralardan ancha kam.

Bu esa energiya tashuvchilar uchun narxlar o'sishi, ayrim mamlakatlar va aholi ba'zi toifalarining energetika xizmatlaridan foydalanishini cheklab qo'yimoqda

hamda davlatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar, hattoki urushlagan sabab bo'lmoqda.

Shu bois, biz va bizning ko'p ming sonli partiyadoshlarimiz tabiiy gazdan "yashil" elektr energiyasiga bosqich-bosqich o'tish, energiyatejamlor va tabiatga bezarar "yashil" texnologiyalarni joriy qilish borasidagi islohotlarni o'la muhim hisoblaymiz va ularni amalga oshirishda faol ishtirok etamiz.

Aholi, tadbirkorlik subyektlarini yashil va musaffo tabiatimiz uchun birlashtirib, mamlakatimizda "yashil" energetikani keng joriy qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol bo'lishga chaqiramiz.

Yilingiz YASHIL BO'LSIN!

EZGU NIYAT ORTIDAGI CHAQIRIQ

Gul ham kislorod chiqaradi

Negadir toza havo deyilsa, aksariyatning xayoliga faqat daraxtlar keladi. Lekin nabotot olamining yana shunday turi borki, ekologiyaning mo'tadilligini saqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu — gullar. Gulni yaxshi ko'rmaydigan odam kam topiladi. Chunki u — go'zallik timsoli. Lekin gullarning xizmatlari faqat shu bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, atirgulni o'ylaylik. Bir tup atirgul bir yilda yarim kiloga yaqin kislorod chiqarib, 300 grammga yaqin karbonat angidrid gazini yutar ekan. Agar tomorqamizga 50 tup atirgul ekilgan bo'lsa, tabiatga 25 kilo toza havo tuhfa qilgan bo'larkanmiz. To'g'ri, ularning samaradorligi daraxtlardek yuqori bo'lmaydi, biroq ekologik mo'tadillikda gullarning ishtiroki juda muhim.

An'anani tiklash lozim

Davlatimiz rahbari 2023-yil 11-avgust kuni Buxoro shahrida o'tkazgan videoselektor yig'ilishida xalqimiz orasida oilada yangi farzand dunyoga kelganda, to'y, yubiley va tug'ilgan kun marosimlarida daraxt ekish kabi ezgu an'anani tiklash muhimligini alohida qayd etgan edi. Darhaqiqat, biror yangilik sodir bo'lganda esdalik sifatida ko'chat ekish xalqimizning azaliy odatlaridan. Biroq targ'ibot yetarli emasligi bois, so'nggi yillarda bu an'ana unutilayotgan edi. Shaxsan Prezidentimizning bu ezgu odanni tiklash zarurligini ta'kidlagani esa qadriyatga qayta jon bag'ishladi.

Xalqimiz hayoti to'y va bayramlar bilan bevosita bog'liq. Oilada farzand tug'lsa, bir oz o'tib beshik to'y'i qilinadi. O'g'il farzandlar sal ulg'aygach, sunnat to'y'i o'tkaziladi. Kamolga yetgach esa nikoh to'y'i. Keksalik pallasida yubiley sanalari nishonlanib, xalqqa dasturxon yoziladi. O'rtacha hisoblaganda bir o'zimiz bilan bog'liq kamida 5-6 ta to'y qilar ekanmiz. Bir oila yillar davomida qilgan to'y-marosimlariga bag'ishlab daraxt ekishni odat qilsa, mo'j'az bog' paydo bo'larkan.

Shu o'rinda bir taklif ham bermoqchimiz. Ko'chat ekish tashabbusi nikohdan o'tish jarayonida ham tatbiq qilinsa, nur ustiga nur bo'lar edi. Masalan, Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yilning yanvar-oktabr oylarida yurtimizda FHDYO organlarida jami 215 ming



Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

"Yashil makon" umummilliy harakatining ham asosida aynan mana shu — o'zimiz yakka-yakka uddalay olmayotgan vazifani, ya'ni yashil hududlarni kengaytirib, kislorodga ehtiyojni birgalikda ta'minlash maqsadi turibdi.

Biz yuqorida qishloq yoki tomorqali mahallalar misolida hisob-kitob qildik. Endi shaharlardagi, ayniqsa, ko'p qavatli uylar joylashgan hududlardagi vaziyatni tasavvur qilib ko'ring. Masalan, 16 qavatli uylarda o'rtacha 80 ta xonadon mavjud. Har birida 5 kishidan yashaydi, desak, 400 kishi bo'ladi. Ularning har biriga o'rtacha 20 tup daraxt kerak bo'lsa, umumiy 8 mingta, degani. Bir mavzda shunday ko'p qavatli uylardan o'rtacha 10 ta bo'lsa, daraxtlar soni 80 ming tup bo'lishi lozim.

Bir massivning o'zida 56 gektar maydonda daraxt ekish imkonsiz ekanini kunday ravshan. Sababi istalgan shaharda



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yer tanqis. Demak, massivlar o'z hududidagi ehtiyojning 10 foizini ham qoplay olmaydi. Toshkent atrofidagi "yashil belbog'" barpo etish loyihasi ana shu ehtiyojni qoplashda katta qadam bo'ldi. Buning ilk namunasi sifatida poytaxtimizning Bektemir tumanida Toshkent halqa yo'li bo'yida yashil hudud yaratildi. Buning uchun 100 gektar yer ajratilgan bo'lib, ikki yilda jami 100 ming tup daraxt va buta ko'chati ekiladi. Loyiha izchil davom etishi natijasida ehtiyojning katta qismini qoplash imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Mana, "yashil belbog'" bizga nima uchun kerak!

"Yashil makon" bejiz umummilliy loyiha deb ta'riflanmagan. Bu xalqimizning milliy vazifasiga, vijdon amriga aylanishi kerak. Dastlab loyiha ommalashishi uchun vazifalar manzilli amalga oshirildi, tashkilotlar tashabbus ko'rsatib, bir-biridan katta, bir-biridan xilma-xil yashil hududlar barpo etayotir. Biroq kutilgan natijalarga erishish uchun xalqimizning kambarastaligi ham nihoyatda zarur. Qarindoshimiz duo orasida aytgan "Yilingiz yashil bo'lsin!" degan tilak zamirida ham ana shu chaqiriq yotgan bo'lsa, ajabmas. Bu maqsadning yurtdoshlarimiz yuragidan joy olayotgani esa kishini quvontiradi.

Toza joyda bog' bo'ladi

Qashqadaryoning bir hududida tashlandiq joy bo'lardi. Zovurga yaqin joylashgani uchunmi, negadir hech kim e'tibor qaratmasdi. Dastlab bir-ikki odam uyining chiqindisini shu yerga tashlashni odat qildi. Keyin bunga yon-atrofdagilar ham qo'shildi. Qarabsizki, binoyidek hudud, shahar markaziga olib boradigan yo'lning yuzi chiqindixonaga aylandi-qoldi. Lekin oramizda befarq bo'lmagan insonlar ham ko'p. Vaqti kelib, bu yerga chiqindi tashlanmaydigan bo'ldi. Yaxshilarning tashabbusi bilan boqqa aylantirildi. O'tgan yili pishiqchilikda shu yo'ldan o'tayotqan, yo'l yuzida meva sotilyapti, bog'ning hosilidan ekan. Yo'l-yo'lakay but daraxtning o'tmishini eslab ketdik. Agar shu yerlar ham tashlandik holatida turaverganda edi, dimoqqa hozirgidek mevalarning hidi emas, chiqindining qo'lansa ishi urilayotgan bo'larmidi...

nikoh holati qayd etilgan. Demak, bu yangi qurilgan bir oila bir tupdan ko'chat o'tqazsa ham qo'shimcha 5,5 tonna kislorod manbasi vujudga keladi, degani.

Bir-birimizni aldasak, jabrlanuvchi o'zimiz bo'lamiz

Daraxt ekish milliy vazifamiz sifatida targ'ib etila boshlagach, bu borada ko'zbo'yamachiliklar ham uchrab turadigan bo'ldi. Davlatimiz rahbari 2021-yilda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida bu kabi holatlarini nazarda tutib, "Shuncha yillarda "qog'ozda" ekilgan daraxtlarni hisoblasa, O'zbekistonda bo'sh joy qolmasligi kerak edi. Tizim, qaror bo'lmagan uchun ekilganing ham ko'pi qurib ketdi" degandi. Bugunga kelib, bunday holatlar ancha kamaydi, biroq barchamizning vijdonimiz amalimizga hakamligicha qolaveradi.

Zararli gaz osmondan yog'mayapti, yerdan ko'tariyapti

Maqolani tayyorlash jarayonida ijtimoiy tarmoqlar orqali Toshkent shahri dunyoning harosi notoza shaharlari orasida birinchi o'rinda chiqibdi, degan xabarlar tarqaldi. Bu holatda kindir poytaxt atrofini o'rab olgan issiqxonalarini aybdor qilib ko'rsatasa, yana kimdir avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazu isitish tizimlari mazut yoqilg'isi bilan ishlatilayotganini sabab deb hisoblamogda. Biroq tahliili jihatdan yondashsak, bu mish-mishlar to'g'ri bo'lgan taqdirda ham ayni muammolarning markazida baribir inson omili turibdi. Sababi issiqxonalaridan daromad olayotgan ham, avtomobillardan foydalanayotgan ham, mazut yoqayotganlar ham o'zimiz. Ya'ni zararli gazlar poytaxtga osmondan yog'ilyotgani yo'q, yerdan ko'tariyapti. Bu esa poytaxt ekologiyasining asosiy najotkori — aholining o'zi ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Masala aynana-aylana baribir atrof-muhit yashilligini oshirish ehtiyojiga borib taqalaveradi. Ko'rinish turibdiki, bundan boshqa choramiz ham yo'q.

U KELGACH, HAMMASI O'ZGARDI

Bandlik

Oltiariq tumani "Qiziltepa" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Muhayyo Alimova endigina o'ttiz yoshga kirdi. Uch farzandi bor, niyat va maqsadlari bir olam. Ammo kutilmaganda hayotning achchiq zarbasiga duch keldi. Umr yo'ldoshi surunkali xastalikdan so'ng nogiron bo'lib qoldi.



Mushfiq ona uch dilbandini bag'riga bosib, ro'zg'or yukini zimmasiga oldi. Bolalari hali yosh, qo'lidan biror ish kelmaydi. Ularni kiyintirish, qornini to'ydirish, bironvan kam qilmay o'stirish tashvishi onaga tinchlik bermaydi. Bir tomonda xasta ota ko'ngliga qarash, sog'lig'ini tiklash umidida yelib-yuguradi. Nologani yo'q, boriga shukr qilib, ro'zg'or tebrataypti.

Yaqinlari, mahalladagi saxovatpesha kishilar tez-tez yo'qlab turibdi. Ammo "Qo'l bilan berganga qush to'yimas" deganlaridek, topgan-tutgani ro'zg'or kam-ko'stidan ortmaydi, ishlay desha, qo'lida hunari yo'q.

Kunlarning birida xonadonga kelgan mahalla faollari, Oltiariq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi vakillari oila hayot tarzi bilan tanishib, uy bekasini haq to'lanadigan jamoat ishlariga taklif qildi. Ish haqi bilan bog'liq to'lovlar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlar jamg'armasi hisobidan to'lab beriladigan bo'ldi.

Bu kun oilamiz hayot tarziga o'zgaracha fayz-u baraka, farovonlik olib keldi, — deydi Muhayyo. — Avvalo, jamiyatning faol a'zosisiga aylandim. Oylilik maoshimni o'z vaqtida olamiz, mehnat stajiga ega bo'lyapman. Bepul tushlik, ishga kelib-ketish uchun

transport bor. Mahallalardagi obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirishda faol qatnashyapman. Saranjom-sarishtalilik, bunyodkorlik yo'lidagi sa'y-harakatlarimizni kuzatgan aksariyat odamlardan rahmat, minnatdorlik tilaklarini eshitib, ko'pning koriga yarayotganimdan faxrlanam.

Bag'dod tumanidagi "Guliston" mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan oliy ma'lumotli Dilnoza Yo'ldoshevaning imkoniyati cheklangan, ikkinchi guruh nogironi. Uch farzandi bor. Jamoat ishlar jamg'armasi vakillari unga "Guliston" MFYda ish yurituvchi lavozimida ishlashi va oilaga qo'shimcha daromad olib kelishi uchun imkoniyat yaratib berdi.

Keyingi yillarda kambag'al, ishsiz, jismoniy imkoniyati cheklangan, yordam va xizmatlar ko'rsatishga muhtoj aholi qatlamini aniqlash va manzilli yordam ko'rsatish borasidagi ishlar ko'lamini kengaytib borayotgani ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar hayot tarziga quvonch-shodlik, farovonlik olib kirmoqda.

Muhimi, bu yo'nalishda qilingan ishlar ham ko'plab misollarni sanab o'tish mumkin. O'tgan yilning o'zida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlar jamg'armasi ma'blag'lari

hisobidan Farg'ona viloyatidagi ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj, og'ir sharoitda yashayotgan 7252 fuqaro haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilib, 9 milliard 319 million so'mlik ish haqlari to'lab berildi. Ularning 5484 nafarini og'ir sharoitda yashayotgan xotin-qizlar tashkil qilgan bo'lsa, 1599 nafari yoshlar. Aholi yashash punktlari va mahallalarni obod qilish va ko'kalamzorlashtirish ishlariga 4223, jamoat ishlar yordamchisi vazifasiga 76, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi daraxt ekish, parvarishlash ishlariga 86 hamda boshqa turdagi mavsumiy va doimiy ishlarga 2783 nafardan ortiq fuqaro jalb qilingan.

Shuningdek, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida Jamoat ishlar jamg'armasi ma'blag'lari hisobidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlari yaratish uchun 156,1 million so'mlik 25 ta zamonaviy tikuv jihozi olib berilib, 20 ga yaqin ishsiz xotin-qizning bandligi ta'minlandi, — deydi Jamoat ishlar jamg'armasi bosh mutaxassisi Bekzod Soipov. — Ularning 15 nafarini yoshlar, 4 nafarini nogironligi bo'lgan fuqarolar tashkil etadi. Joriy yilda bunday korxonalar bilan hamkorlikda yangi ish o'rinlarini ko'paytirish borasida istiqbolli loyihalarga, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Bag'dod tumanidagi "Gulnora Matqulobod bodomlari" ishlab chiqarish korxonasi ham Jamoat ishlar jamg'armasidan ajratilgan 169 million so'm imtiyozli sarmoya hisobiga bodomni qadoqlash uskunasi bilan ta'minlandi. Natijada "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'inidagi ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj 20 xotin-qiz doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va manzilli yordam ko'rsatishning samarali tizimi hayotga tatbiq etilayotgani mehrg, e'tiborga mushtoj kishilar, nogiron, yakka-yolg'izlar qalbiga quvonch, buguni va ertangi kuniga ishonch tuyg'ularini mustahkamlamoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

9-fevral — Alisher Navoiy tavallud topgan kun

Sirtidan qaraganda, qadimda Sharq ayollari huquqlari chegaralangan, ammo ularning aksariyati davlat boshqaruvida juda katta o'rin egallagan. Diniy va dunyoviy bilimni chuqur bilgan, farzandlarini ana shu irfon suti bilan boqqan. Erkaklar kamoloti va jasoratining o'zagi bo'lgan. Ular g'alaba va zafarlarga, marra va murodlarga qutqu bergan.

HAZRAT NAZARI TUSHGAN shoiralalar



Farida AFRO'Z,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi raisi o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Navoiy tarixiy shoiralirimiz haqida "Nasoyim ul-muhabbat" va "Majolis un-nafois" asarlarida bayon etgan. Quyida ularning ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz.

Robiya Adaviya. "Nasoyim ul-muhabbat"da so'fiy ayol Robiya Adaviyaga bir sahifa ajratiladi. Bu ayol Basra shahrida, ulg' shayx Hasan Basriy zamonida yashagan, o'z davrini larzaga solgan eng mashhur va afsonaviy orifa ayoli bo'lgan. U haqida buyuk Fariduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo" asarida 18 sahifa hikoya qiladi.

Mehri Hirotiy. XV asming birinchi yarmida Hirotda yashagan shoira. Mehri ning eri Xoja Abdulaziz Shohruh mirzoning saroy tabibi bo'lgan. Mehri sofdil, ravshanfikr, iste'dodli, shirinsuxan va hozirjavob bo'lgani uchun malika Gavharshodbegimning yaqin suhbatdoshi — nadimasi edi. "Tazkiralarda qariyb bir ovozdan Mehri ning nihoyatda go'zal bo'lgani qayd qilinadi", deya ta'kidlaydi Navoiy. Shoiraning bizgacha yetib kelgan she'rleri insonning ibtidoi va intihosi haqidadir. Mana shu ikki nuqta orasidagi murakkab va chigal umr dostonidir. Mehri fitna-fujurlar bois, birmuncha muddat Shohruh tomonidan zindonband qilinadi. Lekin zindonda turib bitgan she'rleri uni xalos etadi. Shoira she'rilarida dadil aytilgan fikrlar, aniq his-tuyg'ular, alamlil armonlar go'zal badiiy obrazlarda bayon etiladi.

Mehri Hirotda adabiy muhitda katta hurmatga sazovor, taniqli shoira bo'lgan. Navoiy "Majolis un-nafois" asarining "Jamoati maxodim va azizlar zikridakim, bu faqir alarning sharif zamonining oxirida erdim va mulozimatlar sharafiga musharraf bo'lmadim", deb afsuslanadi. Navoiy tazkiralarda shoira baytlaridan misollar keltiradi.

Bixi har xoreki,
on az xoki man hosil shavad,
Zohid ar misvok sozad,
mast-u loyaqil shavad.



(Mazmuni: Mening tuprog'imda paydo bo'ladigan har bir tikan ildizini, agar zohid tish kovlagich qilsa, mast va hushsiz bo'ladi).

Bu misradan ma'lumki, u oddiy shoira bo'lmagan. Uning yozmishlari sizning ham tuyg'ularingizni junbishga keltirmay qo'ymaydi. Mehri o'zini tanigan va o'zgalarga o'zini tanita olgan donishmand ayoldir. So'z o'yinlari orqali aql-zakovatini va irfoni tajallisini namoyish eta olgan oqiladir. Uning ijodi o'zbek adabiyotida ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, satrlarni o'qigan ayol ijodkorlar shoiradan ko'p ta'sirlangan bejiz emas.

Ofoq begim. "Majolis un-nafois" asarida nomi keltirilgan, asli ismi Baxtigul bo'lgan ikkinchi ayol — Navoiyning inisi Darvish Alining xotini Ofoq begimdir. U hokim Husayn Ali Jaloyirning qizi bo'lib, she'riyat sohasida zukko, qobiliyatli ekani aytiladi.

Ayniqsa, uning badihago'yiligi ta'rifi o'z zamonasida juda mashhur bo'lgan. U kirgan davrlar fayz olishi haqida ko'p yozilgan.

Zeboiy. "Majolis un-nafois"da Mavlono Zeboiy taxallusi iste'dodli shoira haqida ham ma'lumot bor.

Jomiy uni madh etgani bayon etiladi. Navoiy Zeboiy shaxsan tanimagan bo'lsa-da, uning she'rilarini eshitgan va qadrlagan.

Tazkirda bunday yoziladi:
"Mavlono Zeboiy — faqir ani ko'rmaymen, ammo she'rin eshitibmen. Bu matla' aningdurkim:

Qomatat shevai raftor
chu bunoyd kunad,
Sarvro bandai xud sozadu ozod kunad".
(Mazmuni: Sening qomating yura boshlasa,



sarvni ham o'z bandasi qiladi, ham ozod qilib yuboradi).

Bediliy. Navoiy tazkiralarda yodga olgan yana bir shoira Bediliydir.

Asarda uning quyidagi matlasini Navoiy namuna sifatida keltirgan:

Ravam ba bog'u zi nargisi
du dida vom kunad
Ki, to nazorai on sarvi
xush xiron kunam.



(Mazmuni: Men boqqa borar ekanman, nargisning ikki ko'zidan bahramand bo'lib, uning go'zal qomatini ko'rib xushnud bo'laman...)

Navoiy tazkirasida Bediliyning oilasidan uch ijodkor — o'g'li Shayxzodai Ansoriy, turmush o'rtog'i Shayx Abdullo va o'zi haqida ma'lumot bergan. O'g'lining ilmi, noyob iste'dodga ega ekanini ta'kidlagan. Shayx Abdullo ham majnunroq bo'lishiga qaramay, yaxshi she'rilar yozgani haqida

Jomiy bilan ustoz shogirdlik maqomida bo'lgani eslanadi. Bibichai Munajjima o'z davrining nozikfahm va orifa ayollaridan bo'lib, ayniqsa, yulduzlar ilmida uningdek tengi yo'qligi, dunyoviy ilmlarni ham bilgani va ko'p fazilatlarini kasb qilgani bois, sulton va amirlar uni hurmat qilardi. Demak, uning Munajjima deb taxallus olishi bejiz bo'lmagan. Bu esa qadimda ayollar faqat adabiyot va san'at bilan emas, balki ilmfan bilan ham shug'ullanganini ko'rsatadi. Navoiy uning masjid, hammom qurib, xalqqa xizmat qilganini ta'kidlaydi.

Navoiy nomlarini tilga olgan barcha tarixiy qahramonlar asarlaridagi badiiy to'qima obrazlarning timsoli edi. Chunki ular o'qimishli ayol, shoira bo'libgina qolmay, iqtisodiyotda, mantiqda, voizlikda, hatto raqsdan ham ilg'or, davlat arboblari, yetuk maslahatchilar edi. Eng muhimi, Navoiy asarlari ayollari hayotsevar, bunyodkor, oliyihimmat va olijanobdir.

Sirtidan qaraganda, qadimda Sharq ayollari huquqlari chegaralangan, ammo ularning aksariyati davlat boshqaruvida juda katta o'rin egallagan. Diniy va dunyoviy bilimni chuqur bilgan, farzandlarini ana shu irfon suti bilan boqqan. Erkaklar kamoloti va jasoratining o'zagi bo'lgan. Ular g'alaba va zafarlarga, marra va murodlarga qutqu bergan.

Bu muhtarama onalar haqida hikoya qilayotib, bir jihatni angladim. Shoirlilik qismat ekanini bildirdim, ammo elning shoiri bo'lish uchun birgina uning o'zi yetmasligini, yurt qayg'usi, vatan shukhi, shoirlilik parvozining ikkinchi qanoti ekanini yanada chuqur bildim. Bir ilhomning o'zi kifoya emasligini, uning atrofida chuqur bilim va mehnat, sabr va matonat, bardosh va diyonat kerakligi ayon bo'ldi. Hazrat Navoiy e'tirof etgan ayol shoiralarga havas qila-qila, bizning bitgimizga Navoiydek yuoshsni bergan Allohga hamdu sanolar aytaman.

Yuragingga qil ham sig'masa,
Mehrsizlik diling tig'lasa,
Bu holingdan joning talvasa
Qilsa agar Navoiyga ayt,
O'qi kitob, Hazratingga qayt!

Sotib ketsa eng yaqin do'sting,
Bitmas bo'lsa hech kam-u ko'sting,
Daraxtmisan, qay taraf o'sding,
Bilmoq bo'lsang Navoiydan so'r,
Do'st topmassan Hazratdan-da zo'r!

Yo'liqqaning bo'lsa xiyonat,
Uchib ketsa qo'lingdan omad,
Osmon tushib, bo'lsa qiyomat,
Navoiydan topasan panoh,
Hazrat erur holingdan ogoh!

Bu saltanat metin qo'rg'andir,
Unda yashar har kim omondir,
U jannatdir, Eram bo'stondir,
Navoiyni aylaylik tavof,
Hazrat erur eng oliy savob!

Magar senga ilm kerakdir,
Duo kerak, tilak kerakdir,
Ishq kerakdir, ko'ngil kerakdir,
Navoiydan toparsan o'zni,
Hazrat aytar ul xolis so'zni!

O, yurakka malham Navoiy,
Har g'aribga hamdam Navoiy,
Zarrangizman men ham, Navoiy,
Yagonamsiz, sizgadir ta'zim,
O sultonim, xonim, hazratim!



Turg'un ZIYAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti faxriy doktori

O'tgan asrning 20-yillarida xalqimiz o'rtasida nafaqat shoir, balki har tomonlama bilimli, iste'dodli va fidoyi jamoat arbobi sifatida tanilgan Botu Hazrat Alisher Navoiy haqida 1921-yilda yozgan "Navoiy" nomli she'rida:

"Navoiyni seyaylik,
Navoiyning otini
Oltin bilan yozaylik...", degandi.

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shaxs dunyo adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Buning tasdiq'ini jahonning turli mamlakatida, xususan, Moskva, Tokio, Boku va boshqa shaharlarda bobomiz sharafiga o'rnatilgan muhtasham haykallar misolida ko'rish mumkin. Yaqinda e'lon qilingan xabarga ko'ra, joriy yilda Dehli shahrida "O'zbekiston bog'i" barpo etilib, Navoiy bobomizga haykal o'rnatiladi. Bu, shubhasiz, O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz o'tgan yili Navoiy viloyatiga tashrifida hudud ma'naviy tarbiya, ma'rifiy yuksalish yo'lida barchaga o'rnak bo'lishi kerakligini ta'kidladi. 2025-yilni viloyatda "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilishni taklif etdi. Bu tashabbus doirasida hududda respublika tanlovi va navoiyxonlik kechalari o'tkaziladi, yoshlarbop kitoblar chop etiladi, shoir asarlari bo'yicha filmlar tayyorlanadi. Yangi Navoiy shaharchasida muhtasham haykal o'rnatiladi va muzey barpo etiladi.

1991-yil O'zbekistonda "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilingan hamda bir qancha nufuzli ilm-fan maskanlariga bobomiz nomi berilgan edi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda buyuk ajdodlarimizga munosabat har qachongidan ham yuksak bosqichga ko'tarildi. Ularning ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganishga e'tibor tubdan kuchaydi. Xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini tadqiq etish, ilmiy-madaniy merosini asrab-avaylash hamda

keng ommalashtirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi.

Masalan, Prezidentimizning 2020-yil 19-oktabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ulug' shoir, atoqli davlat va jamoat arbobining boy va serqirra ijodiy merosini chuqur o'rganish, o'lmas asarlarini yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda keng targ'ib qilishda katta ahamiyat kasb etdi. Navoiyshunos olimlar, ayniqsa, Alisher Navoiy xalqaro jamg'armasi tomonidan ko'plab diqqatga sazovor ishlar bajarildi va bajarilmoqda.

Buyuk bobomiz o'z asarlarida yoshlarga ilm berish, ularni solih farzandlar qilib tarbiyalash zarurligini bot-bot takrorlaydi. Bugun mamlakatimizda ulug' shoirming ushbu orzu-niyatlari hayotga tatbiq etilayotgani, amalga oshayotganidan xalqimiz mamnun. Yurtimizda ta'lim-tarbiya sohasi rivojiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz o'tgan yili 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi nuqtida "Ta'lim sifatini yanada oshirish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan siyosatimiz izchil davom ettiriladi.

Kelgusi yillarda bog'chalarda qamrovni 80 foizga, oliygohlarda kamida 50 foizga yetkazish hukumat uchun asosiy vazifa bo'lib qoladi. Xalqaro moliya institutlarining 61 million dollar mablag'lari hisobidan 2025-yilda 252 ta yangi bog'cha barpo etiladi. Shuningdek, 174 ta bog'cha va 379 ta maktab ta'mirlanadi va yangitdan quriladi. Bu maqsadlar uchun byudjetdan 4 trillion so'm ajratiladi", deya ta'kidladi.

Yuqorida aytilgan raqamlar yoshlarimizning zamonaviy bilim va hunarlarini egallab, kelajakda xalqaro darajada raqobatbardosh kasb egalari bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Bu esa ajdodlarimizning, jumladan, Alisher Navoiy bobomizning hayotiy tamoyiliga aylangan ezgu maqsadi hamda bundan bir asr muqaddam jadid bobomiz Botu o'z she'rida yozgan "Hazrat Navoiy ismini oltin bilan yozaylik", degan orzuning yangi O'zbekiston sharoitida ro'yobga chiqqani amaliy isbotidir.

Navoiy o'z ijodi, ilmiy merosi bilan turkiy adabiy til asoschisi sifatida barcha turkiy elni bir qalam ostida jamuljam etishga intildi. Shoirming turkiy tilda asarlar yozishdan maqsadi ham shu edi. Bugun uning turk elini jamuljam qilish istagi ham amalga oshmoqda.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish uchun samarali tashqi siyosat yuritish, do'st va hamkorlarimiz doirasini kengaytirish, yaqin qo'shnilarimiz bilan mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish o'ta muhim vazifa ekanini doim ta'kidlaydi. Bunga misol tariqasida 170 milliondan ortiq odam yashaydigan turkiy davlatlar o'zaro birlashishga intilayotganini ko'rsatish mumkin. Qisqasi, ulug' bobomizning o'sha davrdagi orzulari bugun ro'yobga chiqmoqda.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 246.
36060 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy